



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### DUNYO MIQYOSIDA TIBBIY SUG'URTA TIZIMI FAOLIYATI VA O'ZBEKISTONDAGI CHORA TADBIRLARI VA MAQSADI

Jozilov Azizbek Xusniddin o'g'li

O'zMU iqtisodiyot fakulteti 1 kurs talabasi

**Anatatsiya:** Bozor iqtisodiyotida asosiy omil hisoblanivchi inson kapitalini mustahkamlash bu davlat iqtisodiyotini rivojlantirish demakdir.Dunyoda 800 mln aholi vakillari yoki aholining 12% i daromadlarining 10% ni sog'liqni saqlash sohasiga sarflashi ma'lum bo'lgan .Shu jumladan O'zbekiston ham aholisi salomatligi oshirish uchun tibbiy muassasalarda yangidan yangi islohotlar amalga oshirilmoqda.shu bilan birga majburiy tibbiy sug'urta sohasiga alohida e'tibor qaratilayotganligini sir emas. aholiga sifatli va tezkor xizmat taqdim etish va òrtacha umr ko'rish darajasini uzaytirish,hamda turli kasalliklarning erta oldini olishni bu tizimning vazifalaridan biridir.tibbiy sug'urta sohasi orqali aholi farovonligini oshirishga yetarlicha hissa qo'shishi mumkin.

**Kalit sòzlar:** Inson kapitali, sug'urta polisi, budget, milliy sug'urta ,Bozor iqtisodiyoti ,De Timmermansbus, Moliyaviy resurs, soliq,duradgor gildiyasi, ekspert.

### ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО СТРАХОВАНИЯ НА МИРОВОМ УРОВНЕ И МЕРЫ И ЗАДАЧИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Анастасия:** Укрепление человеческого капитала, который является основным фактором рыночной экономики, означает развитие экономики государства.Известно, что представители 800 миллионов человек или 12% населения мира тратят 10% своих доходов на здравоохранение, в том числе на здоровье населения Узбекистана.В медицинских учреждениях проводятся новые реформы по увеличению.В то же время не секрет, что особое внимание уделяется сфере обязательного медицинского страхования. Одной из задач этой системы является качественное и быстрое обслуживание населения и увеличение средней продолжительности жизни, а также ранняя профилактика различных заболеваний.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, страховой полис, бюджет, государственное страхование, рыночная экономика, De Timmermansbus, финансовый ресурс, налог, цех плотников, эксперт.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### THE FUNCTIONING OF THE HEALTH INSURANCE SYSTEM LEVEL IN THE WORLD AND MEASURES AND OBJECTIVES IN UZBEKISTAN

**Anatasia:** *The strengthening of human capital, which is considered the main factor in the market economy, means the development of the state economy. It is known that representatives of 800 million people or 12% of the population in the world spend 10% of their income on health care. This includes the population of Uzbekistan. new reforms are being implemented in medical institutions to improve health. At the same time, it is no secret that special attention is being paid to the field of compulsory medical insurance. It is one of the tasks of this system to provide high-quality and fast service to the population and increase the average life expectancy, as well as early prevention of various diseases.*

**Key words:** Human capital, insurance policy, budget, national insurance, market economy, De Timmermansbus, financial resource, tax, carpenter's guild, expert.

Tibbiy suǵurta–bu jamg'armaga doimiy ravishda mablag'lar to'lishi orqali sug'urta holati, shifokorning konsultatsiya harajatlari yoki boshqa tibbiy harajatlarning ma'lum bir qismini to'laydigan inson salomatligi sug'urtasining bir turidir.umuman olganda bu tibbiy sug'urtaga „ kasal bo'ldingiz yutdingiz,sog' bo'ldingiz yutqazdingiz" kabi maqollar bilan ham ta'rif beriladi.

Kengroq ta'rif keltiradigan bo'lsak, barcha rivojlangan davlatlarga qarasak,ularning barchasida sog'liqni saqlash borasida keskin chora tadbirlarni ko'rishimiz mumkun.Har bir davlat òzining davlat tibbiy sug'urta yoki milliy tibbiy sug'urta tizimi (bular umumiy bir ma'noni anglatadi) majburiy hisoblanadi.

Bu sug'urtaning vazifalari va ustunliklari–aholini sifatli va malakali tibbiy yordam bilan ta'minlash, salomatligi oshirish uchun, bundan tashqari, iqtisodiy ,siyosiy va ijtimoiy sohalarda sog'lom ishchi kuchini ham ta'minlaydi. Dunyo miqyosida doim imkoniyatlari cheklangan insonlarga duch kelamiz , bu beixtiyor sodir bo'lувчи jarayonlardan biridir.Hokimyat tomonidan bu jarayonlarni oldini olish uchun moddiy ,ma'naviy yordamlarni amalga oshirmoqda, bu dalillardan biri bu tibbiy sug'urta tizimi hisoblanib asosiy ikki shaklda joriy qilingan bo'lib ya'ni ixtiyoriy va majburiy shaklda. majburiy tibbiy sug'urta davlat tomonidan taminlanib va nazorat qilinadi.Albatta imkoniyati bor insonlar ixtiyoriy bandini tanlash huquqiga ega. Juda ko'p mamlakatlarda yuqori o'ringa chiqqanligi sir emas bu tizimning .

Misol tariqasida birgina AQSH ni tibbiyoti bo'yicha òrganib chiqar ekanmiz Amerikaliklar fikricha sog'liqni saqlash tizimi murakkab ammo sifat jihatidan yuqori.So'nggi molumotlarga ko'ra ,dunyoda uzoq umr ko'rish reytingini bøyicha 51-o'rinda turmoqda.Narxlar haqida ham bir qancha farqlar mavjud .Ya'ni Tibbiy muolaja va preparalar narxi Britaniya va Fransiya kabi Yevropa mamlakatlarga



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

qaraganda ikki baravar qimmatroq. Tibbiy sug'urtasi bo'limgan fuqarolar bundan eng ko'p aziyat chekadi. u yerda istiqomad qiluvchi shaxslarda tibbiy su'gurta shartnomasi bolsa juda ko'p qulayliklar mavjud. misol tariqasida bepul va qisman pullik Tibbiy xizmatlarini öz ichiga oladi .

Shu bilan birga Gollandiya va Yaponiya va boshqa davlatlarda bu tizimning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda ijobiyligi ko'rsatkichi yuqori . Gollandiyadagi tibbiy sug'urta faoliyatiga qiziqib ko'rganimizda , 18 yoshdan boshlab har bir inson özining salomatligi uchun tibbiy sug'urtadan ro'yxatdan o'tadi. Gollandiyada tibbiy sug'urta tizimi uzoq yo'lni bosib o'tdi va zamonaviy tibbiy sug'urta fondlariga o'xshash birinchi "tibbiy sug'urta fondlari" XVIII asrda yaratilgan. 1741 yilda Nijmegen shahridagi duradgorlar gildiyasi tomonidan tashkil etilgan "De Timmermansbus" mavjud sug'urta konserni oldingisiga aylandi. 2007 yilda Gollandiyada 15 tibbiy sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritgan. Shuni ham qo'shimcha qilganda Gollandiya uzoq umr körish bo'yicha 19-o'rinni egallagan.

Bu reyting eng yuqori o'rinni Yaponiyada ko'rishimiz mumkun. Bu davlatda mukammal tibbiy xizmat ko'rsatish sifati juda ham yuqori bo'lib, dunyoviy tibbiy xizmat tizimi ham joriy etilgan . Shuni ham aytish joizki, eng arzon tibbiyot ham shu yerda ekan. Kopchilikni qiziqtirgan savollardan biri, harajatlar qanday qo'llanadi? Misol tariqasida Kanadada xarajatlar alkagol mahsulotlari kazino o'yinlaridan olingan soliq va boshqa jarimlar orqali moliyalashtiriladi. Bu boshqa davlatlarda ham amalda joriy qilingan bo'lib qo'shimcha iste'molchilar dan olingan to'lovlar orqali ham amalga oshiriladi.

Dunyo miqyosida so'zlayotgan bo'lsak har bir shaxs bir oylik maoshining o'rtacha 2% dan 7% gacha farq orasida sug'urta uchun soliq to'lab borishadi bu ular uchun o'rtacha normal hol bo'lib norozichiliklar bo'lmaydi. Birgina Shimoliy Koreya hududida oyliklarining 2% yo 3% ni to'lashadi buni raqamlarda ifodalasak 50\$ yo 60\$ atrofida ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga Germaniyada 7% gacha oyliklaridan tolashar ekan tibbiy sug'urta uchun. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday soha, misol tariqasida , sog'liqni saqlash sohasi ham samarali moliyalashtirish tizimi bo'lmasa rivojlana olmaydi. Sog'liqni saqlash sohasida smetali moliyalashtirish öz ahamiyatini yo'qotgan. xalqaro amaliyotga mos kelmaydigan mexanizmlarga asoslanib qolgan .

Ya'ni u moliya resurslarining samarasiz ishlatalishi va sohaning takror va takror moliyalashtirilmay qolishiga sabab bo'lmoqda. Moliyaviy resurs-larning cheklanganligi, ularidan foydalanish samaradorligini oshirish sog'liqni saqlash sohasining muhim va bartaraf etishi lozim bo'lgan muammolaridan biri hisoblanadi. Bu sohaga ajratilgan mablag'larning samarasi bo'lishi uchun albatta tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish tizimini bir qancha isloh etish lozimdir.

2019 yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va O'zbekiston Respublikasi hukumati tashhabbusi bilan JSST ekspertlari va mahalliy mutaxassislari



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

bilan hamkorlikda yurtimizda majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilishning texnik-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqdi.Va 2021–2025 yillar orasida barcha hududlarida amalga oshirilishi rejalashtirilgan

.Dastlabki qadamlar Sirdaryo viloyatida 2021 yil 1-iyulida sinov-tajriba asosida yo'lga qo'yildi va sirdaryo viloyatida 29ta tibbiy muassassalari bilan moliyalashtirish bo'yicha shartnoma imzolangan va uch yo'nalishda ambilator poliklinika xizmatida,aholi jon boshiga nisbatan,statsionarda glabal budjet tarzida va har bir davolangan holat bo'yicha taribga qo'yildi. 2022 yil yanvar - mart oylari uchun 126.8 mlrd so'm shartnoma imzolangan edi.jumladan aholi jon boshiga moliyalashtirish 33.6 mlrd so'm ,glabal budjet bo'yicha 85.1 mlrd so'm va har bir davolangan holat uchun 8.1mlrd so'm qayt etilgan va har bir bemor uchun to'lov amalga oshirilgan.yuqorida aytilgan molumotga qo'shimcha tarzda,

Sog`liqni saqlash vazirligi Majburiy tibbiy sug`urtani joriy qilish bo`limi boshlig`i Zoxid Ermatov tomonidan quyidagi jumlalar keltirildi:,,Davlat tibbiy sug`urtasini respublikada joriy qilishga qaratilgan hukumat qarori loyihasi xorijiy tajriba va Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti ekspertlari tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan bo`lib, dastlabki bosqichda tibbiy muassasalarni axborotlashtirish, tibbiy yordam ko`rsatish yangi modelini va tibbiy muassasalarni moliyalashtirish yangi mexanizmlarini tadbiq etishni o`z ichiga oladi"

.Shu bilan birga birqancha muommolarni aytishimiz joizki,tibbiy sug'urta kompaniyalari va aholi o'tasida tuzuladigan vaqt kampaniya tomonidan bir qancha nojо'ya harakatlar amalga oshirilishi haqida ko'p eshitamiz,bular shartnomani sog'lom aholi qatlami bilan tuzishga urinishlarini shu sababli nogironlar va keksa aholi vakillariga e'tibor qaratilmasligi va sug'urta polislarini rasmiylashtirishdan o'zlarini olib qochishlar eng katta muommolardan biri deyish mumkun.bu aholining ishonchini yo'qotish va davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga to'sqinlik bo'lishi aniq.hozirgi kunda bunday muommolar birqancha oson yo'llar orgali samarali yechimini topmoqda,misol uchun,tibbiy sug'urta kompaniyalar zimmasiga faqatgina aholi bilan shartnoma tuzish va shartnomani tibbiy sug'urta jamg'armasiga yuborish orgali moliyalashtirilish tartibi yo'lga qo'yildi(ixtiyoriy tibbiy sug'urta bundan).

bu tibbiy sug'urta kompaniyalarning shartnoma tuzishda xarajatlardan qoshish maqsadida faqat sag'lom ahoji vakillari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishini oldini oladi ,ya'ni kompaniya faqat shartnoma tuzadi ,moliyaviy jihatdan qayg'urmaydi.demak siz tibbiy sug'urta bilan shartnoma tuzar ekansiz ,siz o'zingiz hoxlagan vaqtda istalgan tibbiyot muassasiga borib davolanish huquqini beradi.

siz dori narxlari yoki muolaja pullaridan qayg'urib o'tirmaysiz.istalgan tibbiyot muassalarida electron shaklda sizning sug'urta polisingiz chiqariladi,sizga sarflangan barcha xarajatlar jumladan dori vositalari , ovqatlar , muolajalar hammasi amalga oshiriladi sog'ayganligingizdan so'ng 5 ish kunida tibbiyot muassasi tomonidan dalolatnoma tuziladi va jamg'armaga yuboriladi ,so'ngra



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

sizning xarajatlaringiz jamg'arma tomonidan 13 ish kuni ichida qoplanadi.Bu tizim orqali avvalom bor shifokorlar ham xursand bo'lismadi sabab,ular faqat puli bor odamlarga xizmat ko'ssatib cheklanib qolishmaydi,boy va kambag'al bir xil mijoz sifatida qabul qilinadi va salomatligiga bir xil etibor qaratiladi, cho'ntagiga emas bali sog'lig'iga etibor qaratiladi.bu eng katta muommolardan biri korrupsiogen harakatlarni yo'qolishiga olib keladi.Va shuni ham aytish lozimki , davlatimizdagi bu tizim joriy qilish holatlarini o'rganish jarayonida quyidagi molumotlarga ega bo'ldik.Jamg'arma budgeti quyidagi hollarda ham shakllantiriladi:

- Aholini tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi bilan ta'minlash xarajatlarini qoblash uchun ajratilgan Davlat budgeti hisobidan.

- Majburiy tibbiy sug'urtani moliyalashtirish uchun davlat tomonidan belgilangan majburiy soliqlar va yig'imlar.

- Qonunga zid bo'limgan boshqa manbalar

Narxlar to'g'risida gapirar ekanmiz,siz eng yaxshi tibbiy muassasaga tashrif buyirish va davolanishing bilan birga shu bilan birga o'z sarmoyangizni infliyatsiyadan himoya qilasiz.sizdan shartnoma uchun talab etiladigan hujjatlar:

- Ariza-anketa.

- Pastport nusxa.

- Sug'urtalanishi kerak bo'lgan shaxslar ro'rxati.

Shartnomada belgilangan muddat oralig'ida sug'urta polisiga ega shaxs quyidagi imkoniyatlari mavjud bular:sug'urta masalalari bo'yicha sug'urta kompaniyalaridan bepul maslahatlar olishi,agarda sug'urta polisini yo'qotib qo'yganda uning dublikatini olish imkoniyatlari va yana shu jumladan sug'urta summasini olishda sug'urtalovchi bilan muommo yuzaga kelsa mustaqil ekspert chaqirish,o'zi istagan holda sug'urta shartnomasiga yangi ta'riflar kiritish,ikki taraflama roziliki asosida shartnoma muddatini uzaytirish yoxud muddatdan oldin bekor qilish kabi huquqlari mavjud.

Iqtisodiy jihatdan olsak tibbiyot muassassalari o'tasida tabiiy sog'lom raqobat yuzaga kelishi orqali sifatli va malakali xodimlarga talab kuchadi.Shu o'rinda aytish mumkunki o'z o'zidan narxlar muvozanatga keladi.Shuno ham aytish kerakki,viloyat shifoxonalarida yuqimli bo'limgan kasalliklari asoratlari bilan tibbiy muassassalarda yotish burmunch kamaydi.ya'ni,infark 7%ga,insult 9%ga,bronxial astma 2.5% ga kamaydi.Shifoxonalarga yo'llanma asosida yotish 45% dan 85% ga o'sdi.Bemorlarning asossiz yotishi 45% dan 20% ga kamayganligi eng samarali va ishonchli yo'lida ekanligimizdan dalolat beradi.ba'zan majburiy tibbiy sug'urta polisiga ega shaxs oilaviy poliklinikaga va uyerdan tuman shifoxonalariga hatto tuman va poytaxt tibbiy muassassaliga yo'llanma ketma ketlikda amalga oshirilishi kabi holatlarni kuzatar ekanmiz salbiy oqibatlariga va aholining sarson bo'lishi va vaqtining o'tib ketishi yaqqol namoyon bo'ladi.Shu bois xususiy klinikalar bilan ham



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

tuzilayotgan shartnomalarini kengaytirish va rivojlantirish ishlarini olib boorish kerak deb oýlayman .

### ADABIYOTLAR:

1. Sug'urta nazarivasi va amalivoti: O 'quv qo'llanma / I.X.Abduraxmonov; — T.: «Iqtosod-Moliya», 2017. Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi matbuot xizmati veb sayti.
- 2.[https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tibbiy\\_sug%2560](https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tibbiy_sug%2560)
3. "Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat Madieva „davlat tibbiy sug'urta tizimi:maqsadi, vazifalari" nashriyoti..
- 4.<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https://prezi.com/cta7c6bqz/33-tibbiy-sugurtaning-umumiy-tasnifi>